QUVASOYDA SEMENT SANOATINING SHAKLLANISHI: BIRINCHI BESH YILLIK SANOATLASHTIRISH SIYOSATI DOIRASIDA

ISOMIDDINOV Muhammadjon Hasanovich,
Farg‘ona davlat universiteti, professor, Tarix fanlari doktori (DSc).
(ORCID ID: 0000-0003-0090-4424, Tel: (93) 644 09 01)

KARIMOV Sarvar Fayzillayevich,
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktorant.
(ORCID ID: 0009-0004-8980-8600, Tel: (94) 176 22 00)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Quvasoyda sement sanoatining shakllanish jarayoni SSSRning birinchi besh yillik sanoatlashtirish siyosati (1928–1932) doirasida tahlil qilingan. Tadqiqotda arxiv hujjatlari, rejaviy materiallar va ilmiy adabiyotlar asosida Quvasoy hududining tabiiy-geografik imkoniyatlari, mineral-xomashyo resurslari hamda ularning sement sanoati rivojidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, Quvasoy sement zavodini qurish to‘g‘risidagi qarorning qabul qilinishi, qurilish jarayonining bosqichlari, moddiy-texnik ta’minlashdagi muammolar va ularning korxona faoliyatiga ta’siri tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari hududning boy xomashyo zaxiralari, Qizil-Qiya ko‘mir havzasiga yaqinligi va qulay transport infratuzilmasi sement ishlab chiqarishni tashkil etish uchun muhim omil bo‘lgan. Quvasoy sement zavodining ishga tushirilishi respublika qurilish materiallari sanoati taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berib, hududning yirik sanoat markaz sifatida shakllanishiga xizmat qilgan. Shu bilan birga, korxona mahalliy ishchi va muhandis-texnik kadrlarni tayyorlash, shahar infratuzilmasini rivojlantirish hamda keyingi sanoat tarmoqlarining vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Kalit so‘zlar: *Farg‘ona vodiysi, Quvasoy, sement sanoati, sanoatlashtirish, birinchi besh yillik, qurilish materiallari sanoati, sement zavodi, sanoat infratuzilmasi, mehnat resurslari.*

KIRISH.

XX asrning birinchi choragida O‘zbekiston iqtisodiyotida sanoat tarmoqlari nisbatan sust rivojlangan bo‘lib, mavjud korxonalar sonining kamligi, ishlab chiqarish quvvatlarining cheklanganligi, xomashyo va yoqilg‘i resurslari ta’minotidagi muammolar hamda texnik jihozlanish darajasining pastligi sanoat taraqqiyotini sezilarli darajada cheklab qo‘ygan edi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar va malakali muhandis-texnik kadrlarning yetishmasligi mahalliy ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. 1925 yil dekabrida bo‘lib o‘tgan VKP(b) XIV syezdida sotsialistik sanoatlashtirish siyosati rasman qabul qilinishi bilan SSSR hududida og‘ir sanoatni jadal rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi [1; 72-137]. Mazkur siyosat O‘zbekistonda ham amalga oshirilib, respublika iqtisodiyotini umumittifoq xo‘jalik tizimiga integratsiyalashtirish hamda sanoat infratuzilmasini shakllantirish jarayonlarini tezlashtirdi.

Sanoatlashtirish siyosati doirasida tabiiy resurslarga boy va qulay iqtisodiy-geografik joylashuvga ega hududlarda yirik sanoat markazlarini tashkil etishga alohida e’tibor qaratildi. Ana shunday hududlar qatorida Farg‘ona vodiysining janubiy qismida joylashgan Quvasoy alohida o‘rin tutib, sanoatlashtirish jarayonlarining muhim markazlaridan biriga aylandi.

ASOSIY QISM.

Quvasoy hududining sanoat markazi sifatida shakllanishi, avvalo, uning boy tabiiy resurslari va qulay iqtisodiy-geografik joylashuvi bilan bevosita bog‘liq edi. Mazkur hududda qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan mineral xomashyo resurslarining katta zaxiralari mavjudligi sanoatlashuv jarayonlarining erta boshlanishiga xizmat qildi. [2]. Xususan, Quvasoy atrofida aniqlangan yuqori sifatli qurilish va kulolchilik gillari, ohaktosh hamda boshqa mineral resurslar keyinchalik sement, ohak, g‘isht va turli qurilish buyumlari ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish uchun mustahkam xomashyo bazasini yaratdi.

Bu jarayonda Muyan tog‘ining ahamiyati alohida o‘rin tutdi. Uning tarkibini tashkil etgan ohaktosh qatlamlari sement va ohak sanoati uchun asosiy mineral resurs vazifasini bajargan bo‘lib, mahalliy xomashyodan keng foydalanish imkoniyatini ta’minladi. Natijada ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, xomashyoni uzoq masofalardan tashib kelmaslik hamda qurilish materiallari sanoatini hududning o‘zida rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yuzaga keldi [3; 6].

Sanoat rivojida yoqilg‘i-energetika omili ham muhim ahamiyat kasb etdi. Quvasoyga nisbatan yaqin masofada joylashgan Qizil-Qiya ko‘mir havzasi sement va boshqa energiya talab qiluvchi tarmoqlarni zarur yoqilg‘i bilan ta’minlash imkonini berdi. Ayniqsa, sement ishlab chiqarish jarayonida yuqori harorat talab qilinishi hisobga olinganda, ko‘mir konlarining yaqinligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim iqtisodiy omil sifatida namoyon bo‘ldi.

Shu bilan birga, hududning tabiiy-geografik xususiyatlari ham sanoat korxonalarini joylashtirish uchun qulay muhit yaratdi. Suv resurslarining mo‘lligi sanoat korxonalarining texnologik ehtiyojlarini qondirish bilan birga, aholi punktlarining kengayishi va shahar infratuzilmasining rivojlanishiga xizmat qildi [4; 257-261]. Bundan tashqari, Quvasoyning Farg‘ona vodiysining muhim transport yo‘nalishlari kesishgan nuqtada joylashganligi uning iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirdi. Temir yo‘l va avtomobil yo‘llari orqali shaharning shimolda Farg‘ona va Marg‘ilon, janubda esa Qizil-Qiya bilan bog‘langanligi xomashyo yetkazib berish, tayyor mahsulotlarni sotish hamda mehnat resurslari harakatini ta’minlashda muhim rol o‘ynadi.

1920-yillarning oxirida SSSRda xalq xo‘jaligini tubdan modernizatsiya qilishga qaratilgan Birinchi besh yillik reja (1928–1932) qabul qilinib, unda og‘ir sanoatni jadal rivojlantirish, yangi industrial markazlarni barpo etish va qurilish materiallari ishlab chiqarishni kengaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Ushbu siyosat doirasida Farg‘ona vodiysining boy mineral-xomashyo resurslari va qulay transport-geografik imkoniyatlari sement sanoatini rivojlantirish uchun muhim baza sifatida e’tirof etildi. Shu bois vodiyda yirik sement ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish umumittifoq sanoatlashtirish dasturining tarkibiy qismi sifatida qaraldi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida 1927 yilda Quvasoyda sement zavodi qurish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Bu qaror respublikada qurilish materiallari sanoatining moddiy-texnik negizini mustahkamlash, yirik qurilish loyihalarini mahalliy mahsulot bilan ta’minlash va sanoat infratuzilmasini shakllantirishga qaratilgan davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [5; 5]. 1928–1929 yillarda qurilish maydonida geologik-qidiruv va loyihalash ishlari amalga oshirilib, obyekt strategik

ahamiyatga ega «zarbdor qurilish» sifatida e’lon qilindi. Shu munosabat bilan 1929 yildan partiya chaqiriqlari orqali respublika bo‘ylab mehnatkashlar ishchilar, asosan yoshlar safarbar qilindi. Bu jarayon, birinchi navbatda, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan aholi orasida sanoat madaniyatini rivojlantirish, ishchi sinfini tarbiyalash maqsadida amalga oshirildi.

1929 yil Quvasoy sement zavodi qurilishi tarixida amaliy ishlar boshlangan muhim bosqich bo‘lib, aynan shu yili kelajakdagi ishlab chiqarish korpuslari uchun dastlabki qurilish belgilarini o‘rnatish ishlari amalga oshirildi. Qurilishning ilk davrida texnik jihozlar, maxsus mexanizmlar va transport vositalarining cheklanganligi sababli asosiy ishlar qo‘l mehnati asosida bajarildi. Xususan, yer ishlarini olib borish, kotlovanlar qazish, beton quyish hamda ishlab chiqarish inshootlarining poydevorlarini tayyorlash jarayonlarida zambil, belkurak, aravacha va shaxta vagonetkalari kabi oddiy mehnat qurollaridan foydalanildi. Shu bilan birga, qurilish materiallari olinadigan karyerlarga yo‘llar qurilib, ishlab chiqarish obyektlari bosqichma-bosqich barpo etildi [5; 5-6].

Qurilish ishlarining mehnattalab xususiyati o‘sha davr sanoatlashtirish siyosati sharoitida mahalliy mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkonini berdi. Bu esa, bir tomondan, yirik sanoat obyektini barpo etishga xizmat qilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, aholini sanoat mehnatiga jalb etish va yangi ishchi kadrlar qatlamini shakllantirish jarayonini tezlashtirdi. Shu bilan birga, qurilish faqat ishlab chiqarish obyektlarini tiklash bilan cheklanib qolmay, uning atrofida ijtimoiy infratuzilmani shakllantirish ishlari ham parallel ravishda olib borildi. Quruvchilar uchun turar-joylar, maishiy va madaniy xizmat ko‘rsatish obyektlarining barpo etilishi keyinchalik Quvasoyning sanoat posyolkasi va shahar sifatida rivojlanishi uchun muhim zamin yaratdi [5; 6].

Quvasoy sement zavodining barpo etilishi SSSRning birinchi besh yillik sanoatlashtirish dasturi doirasida amalga oshirilgan strategik ahamiyatga ega loyihalardan biri hisoblanadi. 1928–1932 yillarga mo‘ljallangan xalq xo‘jaligini rivojlantirish rejalarida qurilish materiallari sanoatini kengaytirish muhim vazifalar qatoriga kiritilgan bo‘lib, Quvasoy sement zavodi mazkur sohadagi davlat ahamiyatiga ega yirik sanoat obyektlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Besh yillik reja hujjatlarida zavod qurilishini 1929/1930–1931/1932 yillar mobaynida amalga oshirish belgilanib, loyihaning umumiy qiymati 4,8 mln rubl (1926/1927 yillar narxlari bo‘yicha) miqdorida baholangan. Ushbu mablag‘ning to‘liq o‘zlashtirilishi rejalashtirilgani davlat tomonidan Quvasoyda qurilish materiallari sanoatining yirik markazini shakllantirishga katta iqtisodiy va tashkiliy resurslar yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi [6].

Shu bilan birga, zavod qurilishi mamlakat miqyosida kechayotgan jadal sanoatlashtirish jarayonlariga xos bo‘lgan qator muammolar ta’sirida amalga oshirildi. Xususan, qurilish texnikasi, maxsus mexanizmlar va texnologik uskunalar ishlab chiqarish rejalarining bajarilishidagi kamchiliklar qurilish ishlarining sur’atiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. SSSR Xalq Komissarlar Soveti huzuridagi komissiyaning 1931 yil 5 iyundagi qarorida qurilish materiallari sanoati uchun zarur bo‘lgan uskunalarni ishlab chiqarish bo‘yicha davlat dasturining to‘liq bajarilmagani qayd etilgan hamda bu holat bir qator yirik sanoat obyektlarini o‘z vaqtida ishga tushirish imkoniyatini cheklagani ta’kidlangan. Quvasoy sement zavodi ham uskunalar bilan ta’minlanish darajasi yetarli bo‘lmagan korxonalar qatorida tilga olinib, mazkur omil uning qurilish va ishga tushirish muddatlariga ta’sir ko‘rsatgani qayd etilgan [7; 467-468]. Demak, Quvasoy sement

zavodining barpo etilishi bir tomondan sovet davlatining industrial modernizatsiya siyosati doirasida amalga oshirilgan yirik investitsion loyiha bo‘lsa, ikkinchi tomondan, u mamlakat sanoatlashtirish jarayoniga xos bo‘lgan moddiy-texnika ta’minoti muammolari va tashkiliy qiyinchiliklarni ham o‘zida aks ettirgan muhim tarixiy obyekt hisoblanadi.

Quvasoy sement zavodi qurilishiga doir dastlabki tashkiliy va moddiy-texnik muammolarga qaramasdan, mazkur obyekt SSSRning davlat sanoatlashtirish dasturi doirasida ustuvor ahamiyatga ega korxonalardan biri sifatida bosqichma-bosqich barpo etildi. Qurilish ishlari 1929 yil may oyida boshlangan bo‘lib, ular birinchi besh yillik reja vazifalariga muvofiq amalga oshirildi. Bir necha yil davom etgan qurilish va montaj ishlaridan so‘ng korxona 1932 yil fevral oyida ishlab chiqarish jarayonini boshlashga to‘liq tayyor holatga keltirildi.

1932 yil 14 fevralda zavodda ilk sement mahsulotining olinishi Quvasoyda zamonaviy sement sanoati shakllanganligining amaliy ifodasi bo‘ldi. Oradan ko‘p o‘tmay, 1932 yil 20 fevralda maxsus Hukumat komissiyasi tomonidan korxona rasman qabul qilinib, u O‘zbekiston SSRning yirik sanoat korxonalari qatoriga kiritildi. Bu voqea respublikada qurilish materiallari sanoatining yangi bosqichga ko‘tarilganini hamda Quvasoyning industrial markaz sifatidagi ahamiyati ortib borganini ko‘rsatadi [8; 270].

Zavodning ishga tushirilishi nafaqat yangi ishlab chiqarish quvvatlarining yaratilishi, balki respublika qurilish sohasini mahalliy sement mahsulotlari bilan ta’minlash imkoniyatlarining kengayishiga ham xizmat qildi. Dastlabki bosqichda korxona yiliga 260 ming bochka yoki 42 ming tonnadan ortiq portlandsement ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lib, bu ko‘rsatkich uni O‘zbekistondagi eng muhim qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalardan biriga aylantirdi [9; 15].

Shu bilan birga, zavod faoliyatining dastlabki yillarida malakali milliy muhandis-texnik va ishchi kadrlar yetishmasligi muhim muammolardan biri bo‘lib qoldi. Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida quvasoylik bir guruh ishchilar mamlakatning yetakchi sanoat markazlariga yuborilib, sement ishlab chiqarish texnologiyasi va korxona boshqaruvi bo‘yicha amaliy tayyorgarlikdan o‘tkazildi. Xususan, T. Ye. Lubenskiy, Yu. Ataqulov, K. Tursunbayev, N. Daniyarov, P. Romanov va boshqa mutaxassislar Novosibirsk hamda SSSRning boshqa sanoat shaharlarida malaka oshirib qaytgach, Quvasoy sement zavodida mahalliy kadrlar tayyorlash va ishlab chiqarish tajribasini shakllantirish jarayonida muhim o‘rin tutdilar. Natijada korxona nafaqat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish markaziga, balki milliy ishchi va texnik kadrlar maktabiga ham aylandi [5; 7].

XULOSA.

Tadqiqot natijalari Quvasoyda sement sanoatining shakllanishi SSSRning birinchi besh yillik sanoatlashtirish siyosati bilan bevosita bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi. Hududdagi boy mineral-xomashyo resurslari, Qizil-Qiya ko‘mir havzasiga yaqinlik va qulay transport kommunikatsiyalari sement sanoatini rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratgan. Quvasoy sement zavodining qurilishi davlatning qurilish materiallari sanoatini kengaytirishga qaratilgan strategik siyosatining muhim amaliy natijasi bo‘lib, uning barpo etilishi uchun katta moliyaviy va tashkiliy resurslar safarbar etilgan. Zavodning ishga tushirilishi nafaqat respublika qurilish materiallari sanoatining

taraqqiyotiga xizmat qildi, balki mahalliy ishchi va muhandis-texnik kadrlarni tayyorlash, aholini sanoat mehnatiga jalb qilish hamda Quvasoyning yirik sanoat markazi sifatida shakllanishini jadallashtirdi. Natijada u keyingi yillarda kimyo, energetika va boshqa sanoat tarmoqlarining rivojlanishi uchun muhim zamin yaratdi.

Umuman olganda, Quvasoy sement zavodining barpo etilishi O‘zbekistonda qurilish materiallari sanoati rivojlanishining muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, sovet davri sanoatlashtirish siyosatining hududiy darajadagi amaliy natijalarini aks ettiruvchi tarixiy tajriba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon Quvasoyning keyingi iqtisodiy taraqqiyoti va shahar sifatida shakllanishida hal qiluvchi omillardan biri bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. «КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК». Ч. II. – М., 1953. – С. 72–137;

2. Домуладжанова Ш.И, Домуладжанов И.Х, Махмудов С.Ю. “Выбор места строительства промышленного объекта с учетом климатических условий города Кувасая”. Технические науки. № 4 (73) апрель, 2020г.;

3. Farg‘ona davlat arxivi 2151-jamg‘armasi, 1-ro‘yxat, 55-ish, 6-varoq;

4. Karimov S.F. Quvasoy sanoati rivojida tabiiy omillarning o‘rni (XX asr o‘rtalari). Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. noyabr 2025. B.257-261;

5. Рахматов М. Қувасай. – Тошкент, 1983. – Б. 5,6;

6. Объекты нового строительства государственной промышленности на пятилетие (1928/29–1932/33 гг.). Приложение к III тому пятилетнего плана народно-хозяйственного строительства СССР. – М.: Плановое хозяйство, ГосПлан СССР, 1929;

7. Собрание законов и распоряжений Рабоче-Крестьянского Правительства СССР за 1931 год. – М., 1931. – С. 467–468;

8. Экономическая жизнь СССР (Хроника событий и фактов). 1917–1959. – Москва, 1961. – С. 270;

9. Farg‘ona davlat arxivi 2151-jamg‘armasi, 1-ro‘yxat, 55-ish, 15-varoq; Abramov M. Farg‘ona – katta kimyo mamlakati. – Toshkent: O‘zbekiston, 1978. – B. 25.